




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023-YIL YANVAR-OKTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2023-yil yanvar-oktabr oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 14814,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,9 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 13024,0 mlrd. so‘m, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 87,9 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda—80,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning—2,2 % ga oshganligidir. Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash—13,2% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish —5,8 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 201,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.




2023-yil yanvar-oktabr oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	191690,5	146699,3	-44991,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1125,4	834,1	-291,3

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	67,3	54,0	- 13,3


2023-yil yanvar-oktabr oylarida



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomondan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13024,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,9 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi—0,04 % ni (2022-yilning yanvar-oktabr oylarida—0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali—51,9 % (61,6 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali—5,9 % (4,8 %) ni hamda quyi texnologiyali—42,2 % (33,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi–52,3 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi–90,5 %) ni, oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi–19,0 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi–116,7 %) ni, to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–20,2 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi–128,6 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi–4,7 % ni (2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi–119,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,2 ming tonna tozalangan guruch (2022-yilning mos davriga nisbatan 196,6 % ga), 350,7 ming tonna portlandsement (45,3 %), 4,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (43,5 %), 10,9 ming tonna kalava ip (9,9 %), 25,9 ming tonna paxta tolasi (0,2 %), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 36,0 ming tonna paxta chigiti (7,6 %), 2765,1 ming litr aroq (5,4 %), 53,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (39,3 %) ishlab chiqarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	2922,9	2765,1	-157,8
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	3149,2	4520,1	1370,9
Paxta tolasi, t.	25883,0	25930,9	47,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	88398,3	53651,1	-34747,2
Polietilen, ming t.	250,3	227,7	- 22,6
Polipropilen, ming t.	70,3	67,6	-2,7

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 51,6 % ni, fizik hajm indeksi 90,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6718,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 104,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,5 % ga oshgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 2246,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 92,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 30,3 % ga oshgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 2466,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 127,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,4 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 606,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 109,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 119,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 222,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 135,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 110,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 156,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 250,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 208,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-oktabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 84,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 117,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 89,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,1 %.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 97,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 90,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1500,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,1 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 86,8 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	4376,0	4171,1	-204,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	35,2	30,1	-5,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,2 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,3 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 46,5 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2187,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati 107,7%) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (201,2 %), Nukus (135,5 %), Ellikqal'a (119,7 %), Amudaryo (116,2%), Shumanay (113,0 %) hamda Mo'ynoq (112,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtako'pir (46,0 %), To'rtko'l (86,6 %), Taxiato'sh (96,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 82,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 17,7 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 65,4%, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 34,6% ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 102,2%, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 143,7% ni tashkil etdi.

